

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI PAREMIOLOGIK FONDI ASOSIDA  
AUTENTIK IJTIMOY-MADANIY DISKURSNI SHAKLLANTIRISHDA  
LINGVOKULTUROLOGIK KODNING O‘RNI**

**Abdimurodov Doston Dilmurod o‘g‘li**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Xorijiy til til nazariyasi va amaliyoti  
kafedrasida katta o‘qituvchisi, PhD, dotsent v.b.*

*Tel.: +998919644664*

**Bozorova Shaxzoda Nurali qizi**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Filologiya fakulteti: Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi talabasi*

*E-mail: [abdimurodovdoston302@gmail.com](mailto:abdimurodovdoston302@gmail.com)*

*TDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)*

*D.A.Muhammadiyeva taqrizi asosida*

**Annotatsiya.** *Maqolada ingliz va o‘zbek paremiologik birliklari misolida lingvokulturologik kodning autentik ijtimoiy-madaniy diskursni shakllantirishdagi roli qiyosiy tahlil qilinadi. Paremiologik birliklarning aksiologik, sotsiopragmatik va konseptual salohiyati kommunikativ kompetensiya bilan bog‘liq holda sharhlanadi. Qiyosiy-semantik, diskursiv va lingvokulturologik tahlil usullari qo‘llanildi. Natijalar maqollar ijtimoiy xulq, qadriyat va muloqot strategiyalarini modellovchi ixcham diskursiv birliklar ekanini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *paremiologik birlik, lingvokulturologik kod, autentik diskurs, ijtimoiy-madaniy mazmun, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o‘zbek tili.*

**РОЛЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО КОДА В ФОРМИРОВАНИИ  
АУТЕНТИЧНОГО СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ДИСКУРСА НА ОСНОВЕ  
ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОГО ФОНДА АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО  
ЯЗЫКОВ**

**Аннотация.** *В статье на материале английских и узбекских паремнологических единиц сопоставительно анализируется роль лингвокультурологического кода в формировании аутентичного социокультурного дискурса. Рассматривается аксиологический, социопрагматический и концептуальный потенциал паремий в связи с коммуникативной компетенцией. Используются сравнительно-семантический, дискурсивный и лингвокультурологический методы. Результаты показывают, что*

пословицы выступают компактными дискурсивными единицами, моделирующими социальное поведение, ценности и стратегии общения.

**Ключевые слова:** паремиологическая единица, лингвокультурологический код, аутентичный дискурс, социокультурное содержание, сравнительный анализ, английский язык, узбекский язык.

### THE ROLE OF THE LINGUOCULTURAL CODE IN SHAPING AUTHENTIC SOCIO-CULTURAL DISCOURSE BASED ON THE PAREMIOLOGICAL FUND OF ENGLISH AND UZBEK

**Abstract.** *The article comparatively examines the role of the linguocultural code in shaping authentic socio-cultural discourse through English and Uzbek paremiological units. It interprets the axiological, sociopragmatic and conceptual potential of proverbs in relation to communicative competence. Comparative semantic, discourse-based and linguocultural methods are employed. The findings show that proverbs function as compact discourse units modelling social behaviour, values and communicative strategies.*

**Keywords:** *paremiological unit, linguocultural code, authentic discourse, socio-cultural meaning, comparative analysis, English, Uzbek.*

**KIRISH.** Paremiologik birliklar til va madaniyatning kesishgan nuqtasida joylashadi. Ular xalqning tarixiy tajribasi, me’yoriy qarashlari va baholash tizimini ixcham formulalarda mujassamlashtiradi. Shu bois ularni autentik diskursning mikro-modellari sifatida tahlil qilish dolzarb masaladir.

Tilning diskursiv tabiati individual gaplardan tashqariga chiqib, madaniy kodlangan ma’no tuzilmalarini ham qamrab oladi. Paremiologik birliklar ana shu nuqtada alohida ahamiyatga ega: ular muayyan madaniyatda me’yoriy xulq-atvor, baholash va tajriba umumlashmalarini ixcham shaklda ifodalaydi [Mieder, 2004: 3], [Maslova, 2001: 87]. Ingliz tilidagi “Actions speak louder than words” yoki o‘zbek tilidagi “Amal boshqa, gap boshqa” kabi birliklar nutq va harakat o‘rtasidagi aksiologik nisbatni ifodalab, real muloqotdagi ishonchlilik me’yorini faollashtiradi.


Maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek paremiologik fondidagi asosiy lingvokulturologik kodlarni aniqlash, ularning autentik ijtimoiy-madaniy diskursni shakllantirishdagi rolini ko‘rsatish va bu birliklarning kommunikativ kompetensiya bilan bog‘liqligini yoritishdan iborat. Vazifalar sifatida tanlama paremiologik korpusni semantik kodlash, qiyosiy misollar asosida konseptual oppozitsiyalarni tahlil qilish va diskursiv qo‘llanish ssenariylarini tavsiflash belgilandi.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** Paremiologiya kichik folklor janrlarini tavsiflashdan diskursiv-pragmatik tahlilgacha bo‘lgan keng metodologik yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mieder proverbslarni “xalq tajribasining ixcham formulalari” sifatida izohlab, ularning tarixiy va kommunikativ harakatchanligini ta’kidlaydi [Mieder, 2004: 7]. Fiedler esa proverbslar chet tilini o‘qitishda nafaqat til birliklari, balki madaniy stsenariylarni o‘rgatuvchi vosita ekanini ko‘rsatadi [Fiedler, 2014: 173].

Lingvokulturologik yondashuv doirasida Maslova, Karasik va Sharifian ishlari muhim nazariy tayanchdir. Maslova lingvokulturologiyani til birliklarida madaniy ma’no va qadriyatlar qanday kodlanishini o‘rganuvchi fan sifatida belgilaydi [Maslova, 2001: 28]. Karasik konsept va diskurs orasidagi aloqani yoritib, til birliklari ijtimoiy baholashni o‘tkazuvchi belgilar ekanini qayd etadi [Karasik, 2002: 112].

Sharifian madaniy konseptuallashuvlar tilning semantik qatlamida mujassamlashishini ko‘rsatib, bunday birliklar ikkinchi tilni o‘rganishda madaniy tafovutlarni anglashga yordam berishini asoslaydi [Sharifian, 2011: 17], [Sharifian, 2013: 91]. Kommunikativ kompetensiya bo‘yicha Hymes va Canale ishlari tilni grammatik tuzilma emas, balki ijtimoiy jihatdan maqbul va diskursiv jihatdan yaxlit qo‘llash ko‘nikmasi sifatida talqin qiladi [Hymes, 1972: 281], [Canale, 1983: 6].

Shu nuqtai nazardan qaralganda, paremiologik birliklarni anglash va ulardan o‘rinli foydalanish sotsiolingvistik, diskursiv hamda mediatsion kompetensiyalarni rivojlantiradi [Council of Europe, 2020: 24]. Wierzbicka kalit so‘zlar va madaniy stsenariylar orqali til birliklari ortidagi xalqona mantiqni tahlil qilish zarurligini ta’kidlaydi [Wierzbicka, 1997: 18]. Bu fikr paremiologik materialga ham to‘liq taalluqlidir.



*1-rasm. Tanlama korpusda lingvokulturologik kodlarning uchrashish chastotasi*

**METOD VA METODOLOGIYA.** Tadqiqot uchun ingliz va o‘zbek tillaridan 40 tadan, jami 80 paremiologik birlikdan iborat tanlama korpus tuzildi. Tanlov mezonlari sifatida

birlikning keng qo‘llanishi, aksiologik yuklamasi va kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish salohiyati olindi. Korpus mehnat, vaqt, nutq odobi, adolat, jamoaviylik va bilish kabi semantik maydonlar bo‘yicha kodlandi.

Analitik jarayon uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda har bir birlikning tayanch konsepti va baholovchi komponenti aniqlandi. Ikkinchi bosqichda ularning autentik diskursdagi funksiyasi — ya’ni maslahat berish, ogohlantirish, baholash, xulosa chiqarish yoki kollektiv identifikatsiyani mustahkamlash vazifasi — tavsiflandi. Uchinchi bosqichda ingliz va o‘zbek materiallari qiyoslanib, umumiy va milliy-spetsifik kodlar ajratildi.

Metodologik jihatdan qiyosiy-semantik tahlil, lingvokulturologik talqin, diskursiv-pragmatik tavsif va elementar miqdoriy sanash usullari birlashtirildi. Bunday yondashuv paremiologik birlikni nafaqat lug‘aviy ma’no, balki muloqotdagi faol ishlanish shakli orqali tushuntirish imkonini beradi.

*1-jadval. Tahlil uchun olingan paremiologik juftliklarning namunaviy korpusi*

Semantik maydon	Inglizcha birlik	O‘zbekcha birlik	Faollashadigan kod
Mehnat	No pain, no gain	Mehnat qilgan to‘yadi	Mehnat–natija kodi
Vaqt	A stitch in time saves nine	Bugungi ishni ertaga qo‘yma	Prudentlik va vaqt boshqaruvi
Nutq etikasi	Think before you speak	Avval o‘yla, keyin so‘yla	Nazorat va ehtiyotkorlik
Jamoaviylik	Many hands make light work	Birlik bor joyda tiriklik bor	Hamkorlik va kollektivlik
Adolat	As you sow, so shall you reap	Nima eksang, shuni o‘rasan	Axloqiy javobgarlik

**MUHOKAMA.** Tahlil natijalari ko‘rsatishicha, ingliz va o‘zbek paremiologik fondi o‘rtasida umumiy aksiologik yadrolar mavjud bo‘lsa-da, ularning diskursiv realizatsiyasi turlicha. Masalan, vaqt va ehtiyotkorlik konsepti ingliz tilida ko‘proq utilitar va pragmatik ifodalansa, o‘zbek tilida uning ijtimoiy-me’yoriy talqini kuchliroq ko‘rinadi. “A stitch in time saves nine” pragmatik tejamkorlikni urg‘ulasa, “Bugungi ishni ertaga qo‘yma” mehnatsevarlik va mas’uliyatni normativ me’yor sifatida kodlaydi [Wierzbicka, 1997: 18].

Nutq etikasi bilan bog‘liq paremiologik birliklarda ham shunga o‘xshash holat kuzatiladi. Ingliz tilidagi “Think before you speak” iborasi individual nutqiy javobgarlikni, “Words cut deeper than swords” esa so‘zning psixologik ta’sirini markazga qo‘yadi. O‘zbek tilida “Til


yarasi bitmas”, “Avval o‘yla, keyin so‘yla” kabi birliklar ijtimoiy munosabatlarni saqlash, andisha va ehtiyotkorlikni kuchliroq aks ettiradi [Karasik, 2002: 169].

Jamoaviylik kodining faollashuvi o‘zbek materialida nisbatan yuqoriroq uchradi. “Birlik bor joyda tiriklik bor”, “Ko‘pchilik kuch” kabi birliklar hamjihatlikni hayotiy zarurat sifatida talqin qiladi. Ingliz materialida esa “Many hands make light work” yoki “Two heads are better than one” kabi birliklar hamkorlikni amaliy samaradorlik nuqtayi nazaridan ifodalaydi. Bu farq kollektivlikning me‘yoriy va instrumentallik o‘qi bo‘yicha ajralishini ko‘rsatadi [Palmer, 1996: 46].

Autentik ijtimoiy-madaniy diskursda paremiologik birliklar “tayyor argument”, “baholovchi xulosa” va “hamkorlikni boshqaruvchi signal” sifatida xizmat qiladi. Ular munozara, nasihat, oilaviy muloqot, ommaviy axborot diskursi hamda ta‘limiy muloqotda bir xil darajada faol bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan maqollar sotsiolingvistik va diskursiv kompetensiyani rivojlantirishda qulay vosita bo‘lib, ular yordamida o‘quvchi faqat lug‘aviy ma‘noni emas, balki ijtimoiy maqbullik, ohang va baholash strategiyasini ham o‘zlashtiradi [Council of Europe, 2020: 22], [Fiedler, 2014: 177].

Masalan, “Honesty is the best policy” va “Rost gapning ziynati bor” juftligini qiyosiy sharhlashda ingliz tilidagi utilitar “policy” komponenti hamda o‘zbek tilidagi estetik-baholovchi “ziynat” komponenti o‘rtasidagi farq yaqqol ko‘rinadi. Demak, bir xil axloqiy maydon turli madaniy obrazlar orqali diskursivlashadi. Bunday tafovutni anglash mediatsiya faoliyati uchun ayniqsa muhimdir.

#### Analitik model



#### 2-rasm. Paremiologik birlikni lingvokulturologik va diskursiv talqin qilish modeli

**NATIJA.** Tadqiqot quyidagi asosiy natijalarni ko‘rsatdi. Birinchidan, ingliz va o‘zbek paremiologik fondi tarkibida mehnat, vaqt, nutq etikasi, adolat va jamoaviylik kabi yadroviy lingvokulturologik kodlar muntazam faollashadi. Ikkinchidan, umumiy konseptual

maydonlar mavjud bo‘lsa-da, ularning diskursiv profili milliy madaniyatning aksiologik urg‘ulari bilan farqlanadi.

Uchinchi natija shundan iboratki, paremiologik birliklar autentik diskursda kommunikativ iqtisod, baholash va mediatsiya funksiyalarini birlashtiradi. Shu sababli ular tilshunoslikdagi semantik tahlil uchun ham, til o‘qitishdagi kommunikativ-topshiriqli yondashuv uchun ham birdek qimmatli birlik hisoblanadi.

*2-jadval. Kod, diskursiv funksiya va kommunikativ kompetensiya o‘rtasidagi bog‘lanish*

Kod turi	Diskursiv funksiya	Kommunikativ kompetensiyaga ta’siri
Prudentlik	Ogohlantirish, maslahat	Diskursiv va strategik kompetensiya
Nutq etikasi	Baholash, cheklash	Sotsiolingvistik kompetensiya
Jamoaviylik	Hamkorlikni rag‘batlantirish	Interaktiv kompetensiya
Adolat	Axloqiy xulosa chiqarish	Pragmatik va madaniy mediatsiya
Mehnat	Motivatsion formulalash	Kommunikativ va aksiologik kompetensiya

Ta’lim amaliyoti uchun muhim jihat shundaki, paremiologik birliklar bilan ishlashni alohida yodlash topshirig‘i sifatida emas, balki diskurs qurish vositasi sifatida rejalashtirish zarur. Masalan, “Nima eksang, shuni o‘rsan” birligi atrofida sabab–natija mantiqini qurish, “Many hands make light work” atrofida esa hamkorlik bo‘yicha muammoli vaziyatni muhokama qilish mumkin.

Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, reklama matnlari, ijtimoiy tarmoqlar posti va publitsistik maqolalarda uchraydigan yangilangan paremiologik shakllarni ham tadqiqotga kiritish foydalidir. Chunki autentik diskursda maqolning to‘liq shakli ham, ironik yoki qisqartirilgan varianti ham ishlashi mumkin; bu esa lingvokulturologik kodning dinamik tabiati borligini ko‘rsatadi.

Paremiologik birliklar bilan ishlashda qiyosiy sharh, mini-munozara, diskurs rekonstruksiya va mediatsiya kabi topshiriqlar ayniqsa samarali. Bunday mashqlar o‘quvchini tayyor ma’noni qabul qilishdan ko‘ra yangi nutqiy mahsulot yaratishga yo‘naltiradi.

3-jadval. Autentik diskursda paremiologik birliklar bilan ishlash uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar

Topshiriq turi	Maqsad	Kutiladigan mahsulot
Qiyosiy sharh	Madaniy farqni aniqlash	2 tilda qisqa tahliliy izoh
Mini-munozara	Aksiologik pozitsiyani asoslash	Dalillangan og‘zaki fikr
Diskurs rekonstruksiya	Maqolga mos vaziyat yaratish	Qisqa dialog yoki hikoya
Mediatsiya	Boshqa tilda ma’noni vositachilik bilan tushuntirish	Parafraz va izoh

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillari paremiologik fondi autentik ijtimoiy-madaniy diskursni shakllantirishda faol ishtirok etadigan lingvokulturologik resursdir. Paremiologik birliklar xalq tajribasini kodlash bilan cheklanmaydi; ular real muloqotda baholash, me’yorlash, yaqinlashtirish va ogohlantirish funksiyalarini bajaradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun paremiologik birliklarning ijtimoiy tarmoqlar diskursida transformatsiyasi, multimodal kontekstdagi ishlatilishi va chet tilini o‘qitishdagi mediatsion vazifasini kengroq korpus asosida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Canale, M. (1983). From communicative competence to communicative language pedagogy. In J. Richards & R. Schmidt (Eds.), *Language and Communication*. London: Longman.
2. Council of Europe. (2020). *Common European Framework of Reference for Languages: Companion Volume*. Strasbourg: Council of Europe.
3. Fiedler, S. (2014). Proverbs and foreign language teaching. In H. Hrisztova-Gotthardt & M. Varga (Eds.), *Introduction to Paremiology*. Berlin: De Gruyter.
4. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Harmondsworth: Penguin.
5. Karasik, V. I. (2002). *Yazykovoy krug: lichnost, kontsepty, diskurs*. Volgograd: Peremena.

6. Maslova, V. A. (2001). *Lingvokulturologiya*. Moskva: Akademiya.
7. Mieder, W. (2004). *Proverbs: A Handbook*. Westport: Greenwood Press.
8. Palmer, G. (1996). *Toward a Theory of Cultural Linguistics*. Austin: University of Texas Press.
9. Richards, J. C. (2008). *Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Sharifian, F. (2011). *Cultural Conceptualisations and Language*. Amsterdam: John Benjamins.
11. Sharifian, F. (2013). Cultural conceptualisations in learning English as an L2. *Iranian Journal of Language Teaching Research*, 1(1), 90–116.
12. Thornbury, S. (2005). *How to Teach Speaking*. Harlow: Longman.
13. Vandergrift, L. (2004). Listening to learn or learning to listen? *Annual Review of Applied Linguistics*, 24, 3–25.
14. Wierzbicka, A. (1997). *Understanding Cultures through Their Key Words*. Oxford: Oxford University Press.
15. Mukhammadiyeva, M. E. (2025). Linguodidactic role of proverbs in language teaching process. *Foreign Languages in Uzbekistan*, 6, 45–58.